



## MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrlı do‘stlar!

Siz, azizlarni — mamlakatimizning bosma va internet nashrlari, teleradiokanallar, axborot va media xizmatlarida, nashriyot va matbaa korxonalarida sidqidildan mehnat qilayotgan ijodiy va texnik xodimlarni, zahmatkash jurnalistlar, muhtaram faxriylarni kasb bayramingiz bilan chin qalbindan tabriklayman.

Men sizlarni — yuksak bilim va salohiyatga ega, vatanparvar barcha jurnalistlarni o‘zim uchun doimiy maslakdosh, jonkuyar do‘st deb bilishimni yana bir bor izhor etaman.

Bu yil ushbu qutlug‘ ayyom milliy matbuotimiz asosi — jadid bobolarimiz tomonidan “Taraqqiy” gazetasi tashkil etilganiga 120 yil, yurtimizda radioeshittirishlar ilk bor tajriba tariqasida uzatilganiga 100 yil to‘lgan kunlarda nishonlanayotgani unga alohida shukuh bag‘ishlamoqda.

Biz bundan o‘n yil oldin demokratiya, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari, “Inson qadri uchun, inson baxti uchun!” degan ezgu g‘oyaga tayangan holda Yangi O‘zbekistonni qurishga kirishgan edik. O‘tgan qisqa davrda ko‘p millatli xalqimizning fidokorona va sharaflı mehnati bilan bu borada ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdik.

Jumladan, jamiyatimizda so‘z erkinligini ta‘minlash, ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash, davlat organlari faoliyatining ochiqligini kengaytirish, axborot sohasini raqamlashtirish va zamonaviy mediamakonni shakllantirish borasida e‘tiborga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda.

Yaratilgan mustahkam huquqiy asos, berilgan imtiyoz va preferensiyalar natijasida sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, uning tarkibida xususiy sektorning ulushi yildan yilga oshib bormoqda. Hozirgi kunda qariyb 2

ming 700 ta ommaviy axborot vositalarining 67 foizi, noshirlik subyektlarining 90 foizdan ortig‘i, matbaa korxonalarining 83 foizi nodavlat sektor hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Joriy yilda nashriyotlarning ishlab chiqarish quvvati o‘tgan yilga nisbatan ikki barobar ortib, o‘rtacha 15 ming nomdagi jami 60 milliondan ortiq nusxada kitoblar nashr etildi.

Mazkur ko‘rsatkichlar mamlakatda axborot sohasini liberalashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, media faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ishlari hamda axborot xizmatlari bozori kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Axborot oqimi keskin ortib, dipfeyk texnologiyalari keng tarqalayotgan bugungi davrda manbalarning ishonchli ekaniga alohida e‘tibor qaratish mamlakatimizda ham muhim ko‘nikmaga aylandi. Qisqa vaqtda turli media loyihalar orqali 10 ming yoshni qamrab oladigan zamonaviy ta‘lim tizimi shakllantirildi.

Hurmatli ommaviy axborot vositalari xodimlari! Biz erkin va mas‘uliyatli, xalqchil jurnalistikani jamiyat va davlat rivojlanishining zarur shartlaridan biri deb bilamiz. Bu borada ommaviy axborot vositalari xodimlari faoliyati uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish, ularning huquq va manfaatlari himoyasini kuchaytirish, kasb mahorati va malakasini oshirish, jumladan, ijtimoiy himoyasini ta‘minlash, mehnatini rag‘batlantirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan yangi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi faoliyatini takomillashtirish, uning nufuzini oshirish va islohotlar jarayonidagi ishtirokini kengaytirish zarur deb o‘ylayman. Nega deganda, tez o‘zgarayotgan bugungi

davrnng o‘zi ushbu jamoat birlashmasi oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Jurnalistlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga huquqiy va informatsion-texnologik yordam ko‘rsatish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda kasbiy birdamligini ta‘minlash kabi masalalarga jiddiy e‘tibor qaratishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Bu borada ilk bor mamlakatimiz bo‘ylab uch oy davomida 12 mingdan ortiq soha vakillari, jumladan, yosh jurnalistlarni jalb qilgan holda o‘tkazilgan Media haftalik tadbirlarini kelgusida ham davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Men mamlakat rahbari sifatida milliy ommaviy axborot vositalarimiz davlat va jamiyat o‘rtasida mustahkam ko‘prik vazifasini bajarish barobarida xalqimizni umummilliy manfaatlar asosida birlashtiradigan, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan qudratli ma‘naviy kuchga aylanishi uchun barcha yordam va ko‘makni ko‘rsatishga doimo tayyorman.

Muhtaram matbuot ahli! Fursatdan foydalaniib, bugungi quvonchli sana munosabati bilan yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan soha xodimlarini chin qalbindan samimiy tabriklayman.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat, faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Qalamingiz hamisha o‘tkir, so‘zingiz haqqoniy va ta‘sirchan, ijodingiz barakali bo‘lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti**

**27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni**

## E‘TIROFLAR TIMSOLIDA MASHAQQATLI MEHNATNING XOLIS VA ADOLATLI BAHOSI



Kuni kecha poytaxtimizdagi muhtasham “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida 27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

## MAMLAKATIMIZ MEDIA LANDSHAFTIDA TRANSFORMATSIYA

**Toshkentda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan yirik mediaforum bo‘lib o‘tdi.**

Axborot insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim o‘rin tutgan. Zamonaviy dunyoda uning ta‘sir doirasi mislsiz kengayib, media makoni raqobat, jamoatchilik fikri va taraqqiyot sur‘atlarini belgilaydigan strategik

omilga aylandi. Bugun mamlakatdagi islohotlar mazmuni ham, uning xalqaro nufuzi ham ko‘p jihatdan axborotning qanday yaratilishi, tarqatilishi va qabul qilinishi bilan o‘lchanadi. Shu sababli media sohasini rivojlantirish, professional kadrlar

tayyorlash, zamonaviy kontent ishlab chiqish hamda ochiq axborot muhitini shakllantirish har qanday davlat qarshisida turgan ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

**Davomi 2-betda**

## YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va sohada prokuror nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.**

Keyingi yillarda bu borada tizimli ishlar amalga oshirildi, xususan, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus va hududiy komissiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Soliq va bojxona organlarida xavf tahlili hamda segmentlash tizimlari joriy etilib, qonunchilikdagi yashirin aylanmalarga yo‘l ochayotgan bir qator “tuyuk”lar yopildi, qonunga itoatkor tadbirkorlarni rag‘batlantirish choralari esa kuchaytirildi.

Amalga oshirilgan choralar natijasida so‘nggi ikki yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 35 foizdan 23 foizgacha kamaydi, budjetga qo‘shimcha 38 trillion so‘m undirildi, rasmiy band aholi soni 8,5 million nafardan oshdi, rasmiy o‘rtacha ish haqi esa 6,5 million so‘mga yaqinlashdi.

Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot ulushi hali ham yuqorilgicha qolmoqda. Statistik baholashlarga ko‘ra, joriy yilning birinchi choragida kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi qishloq xo‘jaligida 81,1 trillion so‘mni, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida 24,5 trillion so‘mni, qurilishda 23,9 trillion so‘mni, sanoatda esa 6,7 trillion so‘mni tashkil qilmoqda.

Yashirin iqtisodiyot budjet daromadlarini kamaytirish bilan bir qatorda mamlakatdagi sog‘lom raqobat muhitiga salbiy ta‘sir ko‘rsatish, norasmiy bandlik tufayli fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganlik darajasini pasaytirish, aholi (iste‘molchilar) hamda tadbirkorlik subyektlarining qonun bilan belgilangan kafolat va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan to‘liq foydalana olmaslik kabi oqibatlariga olib keladi.

Mamlakatimizda 2030-yilgacha yashirin iqtisodiyot hajmini ikki barobar qisqartirish, rasmiy band aholi sonini 14 million nafarga, naqdsiz to‘lovlar ulushini 75 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbari tomonidan sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda sohalar va hududlar kesimida yashirin iqtisodiyot xavfi,

ehtimoliy budjet yo‘qotishlari va qo‘shimcha daromad manbalarini aks ettiradigan yagona raqamli platformani yaratish, ushbu platforma yordamida xufiyona aylanmalarni keltirib chiqarayotgan omillarni aniqlash hamda bartaraf etish zarurligi bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan edi.

Taqdimotda aynan shu maqsadda Bosh prokuratura tomonidan yaratilgan va sinov tariqasida ishga tushirilgan “Yashirin iqtisodiyot xaritasi” platformasining imkoniyatlari haqida axborot berildi.

Platforma iqtisodiyotning 22 ta asosiy tarmog‘i, 85 ta soha, 14 ta ma‘muriy hudud va 208 ta tuman-shahar kesimida yashirin aylanmalar xavfini aniqlash va mas‘ullar tomonidan ularning bartaraf etilishini nazorat qilish orqali budjet daromadlarini oshirish hamda sog‘lom raqobatni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Platformani yaratishda soliq, bojxona, moliya, iqtisodiyot, statistika, ekonometrika va ehtimollar nazariyasi yo‘nalishlari bo‘yicha bir qator malakali mutaxassislar jalb qilinib, yuzdan ortiq xavf mezonlari ishlab chiqilgan hamda ularga hudud va tarmoqlarning o‘ziga xos xususiyatlari, soliq rejimi, tovar aylanmasi, budjet uchun ahamiyati va boshqa omillarni inobatga olgan holda individual koeffitsiyentlar belgilangan.

Soha va hududlar kesimida yashirin iqtisodiyot xavfi va ehtimoliy budjet yo‘qotishlarini aniqlash maqsadida platformaga 16 ta mas‘ul vazirlik va idoraning axborot tizimlari integratsiya qilingan va barcha ma‘lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkoniyati yaratilgan.

Platforma tahlillari asosida yashirin iqtisodiyot xavfi va ehtimoliy budjet yo‘qotishi miqdoridan kelib chiqib, soha va hududlar avtomatik tarzda “yashil”, “sariq” hamda “qizil” toifalarga ajratiladi.

Mazkur platforma orqali litsenziyasiz faoliyat yuritish, haqiqiy

aylanma, ish o‘rinlari va mehnatga haq to‘lash jamg‘armasini yashirish, rentabellik va foydani kamaytirish kabi xavflar avtomatik aniqlanadi.

Taqdimotda platfomaning imkoniyatlaridan foydalangan holda sohada prokuror nazoratini raqamlashtirish orqali uni yangi bosqichga olib chiqish taklif etildi.

Mazkur jarayonda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishga mas‘ul vazirlik va idoralarning kuch va vositalari platforma tahlillari asosida manzilli yo‘naltiriladi, ularni nazorat qilishda esa inson omili yanada kamaytiriladi. Yashirin iqtisodiyot xavfi yuqori bo‘lgan soha va hududlar avtomatik tarzda aniqlanadi, sabablar tahlil qilinadi, mas‘ul idoralarga manzilli topshiriqlar beriladi, ijro nazorat qilinadi va natijalar baholab boriladi.

Agar tuman yoki shahar darajasida muammo hal etilmasa, masala viloyat bosqichiga, zarur hollarda respublika darajasiga olib chiqiladi. Tizim orqali muammoning ildiz sabablari aniqlanib, uni bartaraf etish, qonunchilikni takomillashtirish va budjet daromadlarini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Davlatimiz rahbari yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda asosiy e‘tibor raqamlashtirish, ma‘lumotlar almashinuvini kuchaytirish, inson omilini kamaytirish va nazoratni manzilli tashkil etishga qaratilishi zarurligini yana bir bor ta‘kidladi.

Mas‘ullarga 1-oktabrga qadar 70 dan ortiq axborot tizimini platformaga integratsiya qilish, 1-yanvarga qadar barcha hududlar va sohalarni ushbu platforma bilan qamrab olib, to‘liq ishga tushirish topshirildi.

Shuningdek, barcha tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda mutasaddilarning mas‘uliyatini oshirishda prokuror nazoratini kuchaytirish vazifasi qo‘yildi.

O‘zA

**30-iyun — Yoshlar kuni**

## NAVQIRON AVLODNING MUVAFFAQIYAT FORMULASI

Insoniyat tarixining qay bir davriga nazar solmaylik, undagi eng buyuk zafarlar, ilmiy kashfiyotlar va yuksalishlar zamirida aynan yoshlar shijo‘ati, ilgma tashnaligida hamda cheksiz g‘ayrati mujassamligiga guvoh bo‘lamiz. Dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgan, geosiyosiy jarayonlar murakkablashayotgan bugungi davrda davlatlarning qudrati iqtisodiyot ko‘rsatkichlari yoki an‘anaviy armiyasi bilan birga o‘sha mamlakatda kamol topayotgan yosh avlodning ma‘naviy dunyosi va intellektual salohiyati bilan ham belgilanmoqda.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosati shunchaki targ‘ibot emas, balki davlat strategiyasining eng muhim yo‘nalishiga aylandi. Mana to‘qqiz yildirki, mamlakatimizda

30-iyun — Yoshlar kuni kengtantana qilinib, o‘tib kelayotgan avlodning intilishlari qo‘llab-quvvatlanmoqda va rag‘batlantirilmoqda. Bu sana millatimizning ertangi kuniga yuksak ishonchi ramzi bo‘lish bilan birga yangi O‘zbekiston taqdirini belgilashda yoshlarning o‘rni naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. E‘tiborli jihati, bugun armiya, umuman, Qurolli Kuchlar tizimi yoshlar uchun o‘zini har tomonlama namoyon etadigan eng jozibali va nufuzli sohaga aylandi.

**Davomi 5-betda**











YANGI O'ZBEKISTON

Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi eng nufuzli OTMlarda o'qiyotgan yoshlar 500 dan, TOP-100 talikdagi oliygohlarga qabul qilingan yigit-qizlar soni esa 3500 dan oshdi.

## Yangi O'zbekiston orzusi

“

Prezidentimiz tashabbusi bilan xorijda muvaffaqiyatga erishgan vatandoshlarimizni yurtimizga qaytarish harakati boshlangani juda yaxshi samara bermoqda. Haqiqiy bozor iqtisodiyotini barpo etish uchun xorijiy universitetlarni bitirgan, ishlagan, uni o'z hayotida ko'rgan yoshlarni ishga jalb qilishning ahamiyati juda katta bo'ldi. Bu vatandoshlarimiz jamiyatimizga go'yo toza qon olib kirdi deyish mumkin.



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

3

2026-yil 27-iyun, 129-son

# YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHGA QODIR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI YARATILDI



Odil OLIMJONOV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

2016-yildan e'tiboran, ya'ni tarixan o'ta qisqa muddatda yangi O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hamda madaniy poydevori yaratildi. Yurtimiz qiyofasi, xalqimiz dunyoqarashi tubdan o'zgardi. Lekin bular osonlikcha yuz bergani yo'q. Prezidentlik lavozimiga saylanishi bilan Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va rahbarligida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va darhol amaliyotga joriy etishga kirishildi. Mazkur strategiyani amalga oshirish o'ta murakkab masala bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan kadrlar bilimi va saviyasiga bog'liq edi.

Muayyan sabablarga ko'ra, yurtimizda o'sha paytda bunga qodir rahbar va mutaxassislar yetarli emasdi. Buning sabablarini to'laroq tushunish uchun mustaqillikning ilk yillarini bir qur yodga olishga to'g'ri keladi. Mustaqillikka erishganimizni xalqimiz juda katta quvonch bilan kutib oldi. Uni mustahkamlash, yangi,



ozod va barkamol jamiyat barpo etish uchun ko'tarinki ruh bilan astoydil ishlay boshladik. "Hayotimiz tezda juda yaxshi bo'lib ketadi" degan va'dalar takror-takror berilardi.

Xalqimiz bu gaplarga chin dildan ishongani bois, istiqlolning ilk davridagi qiyinchilik va kamchiliklarga mardonavor turib berdi. Ammo qabul qilingan qonunlar, farmonlar, berilayotgan va'dalar real hayotda ijobiy o'zgarishga olib kelmaganini, turmushimiz darajasini oshmayotganini asta-sekin anglay boshladik.

Statistikada esa hammasi juda yaxshi edi. Barcha raqamlar go'yo farovon jamiyat qurayotganimizni ko'rsatardi. Ayniqsa, makroiqtisodiy va turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni xohlagancha bo'yab tashladik. E'lon qilinayotgan raqamlar ijobiy, biroq turmushimizda mazkur holat aks etmayotgandi. Haqiqatni aytish esa mumkin emasdi...

Tadbirkorlik ham asosan amaldor yoki hokimiyatga yaqin shaxslargina shug'ullanadigan yumush bo'lib qolgan, ko'pchilik uchun bu soha amalda yopib qo'yilgan edi. Natijada yurtimizda avval hech

qachon bo'lmagan hodisa yuz berdi. Ya'ni yer osti va yer usti boyliklari serob zaminada qad rostlagan yurt o'zini o'zi boqa olmay qoldi. Odamlar ish izlab chet elga keta boshladi. Ta'lim tizimi zamonaviy talablarga javob bermasligi tufayli yoshlarimizning bilimi past edi. Boz ustiga biror hunar egallamay maktabni bitirgani tufayli ham oddiy qora ishchi darajasiga tushib qolgandi. Mana shunday vaziyatda ko'plab davlat xizmatchilari o'z xizmat vazifasini qo'l uchida bajara boshlagan, negaki yaxshi ishlashdan ma'no yo'q edi go'yo.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev uzoq yil hukm surgan ana shunday noxush muhit oqibatida rahbarlik lavozimlarida o'tirgan katta avlod vakillaridan muayyan qismining ongi qotib, ruhi so'nib yurgani jamiyatimizning taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'lib qolganini va bu holatni tezda o'nglash zaruratini yaxshi bilardi. Xullas, u hokimiyatga kelgan paytda mamlakatning boshqaruv darajasi tushib ketgan, davlat organlari rahbar va xodimlarining anchagina qismi kasbiy ko'nikmalarini allaqachon yo'qotib bo'lgandi. Mana shu sabablarga ko'ra, yangi O'zbekistonni barpo etish uchun zamonaviy bilimlarni egallagan, yuqori saviyalii, mas'uliyatli, yuz minglab mutaxassislar kerak edi.

### Mutaxassislar yetishtirish asosi — ta'lim va tarbiya

O'sha kezlari mutaxassis bo'lish uchun dastlabki bilim va ko'nikma berishi kerak bo'lgan ta'lim tizimi bu vazifani bajarishga qodir emasdi. Shu bois, davlatimiz rahbari, avvalo, ta'lim va fanni rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratdi. Maktabgacha tarbiya, o'rta va oliy ta'lim tizimi, jumladan, ularni boshqarish organlari tubdan o'zgartirildi.

Xususan, farzandlarimizni bog'cha bilan qamrab olish ko'rsatkichi 2016-yildagi 23,8 foizdan 2026-yil boshida 77 foizga yetkazildi. Chunki farzand tarbiyasi, tartib-intizomga o'rganishi, bilimlarni qabul qilishning ilk ko'nikmalarini shakllantirishda maktabgacha ta'limning ahamiyati beqiyos.

Shuningdek, oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonida deyarli yo'q bo'lib ketgan adolat mezonlari qayta tiklandi. Oliy ta'limga qamrab



Bu borada yana bir muhim jihat bor — mutolaa. Ya'ni kitob o'qimay malakali mutaxassis bo'lish juda qiyin. Bu — oddiy aksioma. Biroq 2016-yilgacha bo'lgan davrda xalqimizning kitobxonlikka ehtiyoji ham keskin tushib ketgan, yoshlarning katta qismi umuman kitob o'qimay qo'ygandi.

Ushbu ezu odatni qayta qaror toptirish maqsadida davlatimiz rahbari yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini ommalashtirish, ularning badiiy savodxonligini oshirish va mutolaa muhitini shakllantirishga qaratilgan "Yosh kitobxon" tanlovini o'tkazish tashabbusini olg'a surdi. Tanlovning tuman, shahar va viloyat bosqichi g'oliblari diplom va qimmatbaho sovg'alar, respublika bo'yicha g'oliblari esa Prezident sovg'asi sifatida avtomashinalar bilan taqdirlanadigan bo'ldi. Mazkur tanlov butun mamlakatni qamrab oldi hamda qatnashchilar soni 3 milliondan oshdi. Bu tadbir yoshlarning kitob o'qishga muhabbatini va shu yo'l bilan ongini ham keskin o'zgartirdi.

Prezidentimizning 2026-yil 22-maydagi "Yoshlar orasida kitobxonlik dasturini keng joriy etish va ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoyishi esa mamlakatimizda kitobxonlik darajasini yanada oshirish bo'yicha yangi umummilliy harakatni boshlab berdi. Davlatimiz rahbari mazkur harakatga start berish marosimida so'zlagan nutqida "Men ushbu dasturni shunchaki kitob o'qish musobaqasi emas, balki jonajon Vatanimiz kelajagi uchun strategik investitsiya deb bilaman. Agar biz bugun bolalarimizning qo'lga yaxshi kitob bersak, ertaga ular yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga albatta qodir bo'ladilar", deb alohida ta'kidladi.

Mazkur umummilliy harakat yoshlar o'rtasida kitobxonlik darajasini keskin oshirishi turgan gap. Bu esa, o'z navbatida, yangi O'zbekistonni barpo etishga har taraflama tayyor va bilimli mutaxassislar tayyorlashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Zero, insonning ongi yuksak, bilimi chuqur bo'lmasa, kitob o'qimasa, u faqat tirikchilik g'ami bilan yashaydi. Katta muvaffaqiyatlariga erishish haqida esa gap-so'z bo'lishi mumkin emas.

### Ishonch katta marralarga undaydi

Avvalgi davrda yoshlar orasidan rahbarlar tanlab olishga e'tibor yetarli bo'lmagan. Mamlakatimiz aholisining 60 foizini tashkil qiladigan yoshlarga ishonch qariyb yo'q edi. Prezidentimiz bu masalada ham tub burilish yasadi. Shaxsan o'zi yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil eta boshladi. Mazkur muloqotlar erkin fikr almashish tarzida o'tkazilishi esa ko'pchilikni hayratga soldi. Ana shu tadbirlarda davlatimiz rahbari bilan muloqotda favqulodda iqtidorini namoyon etgan talabalarning rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi ana shu hayratni chandon oshirgani ham rost.

Boshqa tomondan Prezidentimiz tashabbusi bilan xorijda muvaffaqiyatga erishgan vatandoshlarimizni yurtimizga qaytarish harakati boshlangani juda yaxshi samara bermoqda. Haqiqiy bozor iqtisodiyotini barpo

etish uchun xorijiy universitetlarni bitirgan, ishlagan, uni o'z hayotida ko'rgan yoshlarni ishga jalb qilishning ahamiyati katta bo'ldi. Bu vatandoshlarimiz jamiyatimizga go'yo toza qon olib kirdi deyish mumkin.

Yoshlar, jumladan, chet ellardan qaytib kelgan yigit-qizlarimiz orasidan nufuzli rahbarlar yetishib chiqdi. Ular allaqachon qator vazirlik va idoralarda peshqadamlikni qo'lga olgan. Bu ishlarning mamlakatimiz yoshlariga qanchalik ijobiy ta'sir qilganini so'z bilan tushuntirish qiyin. Salkam 30 yillik davrda yo'qolib ketayotgan ilm olishga intilishning yana qayta tiklanishida kitobxonlikni kuchaytirish, yoshlarni, jumladan, xorijdagi yigit-qizlarimizni rahbarlik ishlariga keng jalb etish juda katta ahamiyat kasb etdi.

### Ochiq tanlov joriy etildi

Prezidentimiz 2022-yil 4-avgust kuni davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida "Oxirgi yillarda amalda oshirilgan ma'muriy islohotlar natijasida davlat xizmatchilari xalqqa ancha yaqinlashgani, mahallabay va xonadonbay ishlash tizimi yo'lga qo'yilgani, lekin davlat xizmati hali xalqni chinakam rozi qiladigan tizimga aylana olmaganini"ni qayd etdi hamda davlat xizmati faoliyatining kamchiliklarini ochib berdi. Jumladan, qobiliyatni aniqlash, o'qitish jarayonini yaxshi yo'lga qo'yishga o'rgatadigan ixtisoslashgan yaxlit tizim bo'lmagani uchun ayrim rahbar kadrlar berilgan vazifalarni eplay olmayapti. Mas'ul lavozimlarda ishlayotgan rahbar va mutaxassislarni to'g'ri tanlash, tayyorlash va ruhlantirish talab darajasida yo'lga qo'yilmagani ham ular faoliyatidagi kamchiliklarning asosiy sabablaridan biri bo'lmoqda.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun qator tadbirlar belgilandi. Xususan, barcha vakant lavozimlarni ochiq yagona elektron platformaga joylashtirish tizimi yo'lga qo'yildi. Bo'sh lavozimga tanlovda ishtirok etish uchun avval talab etilayotgan 16 ta hujjat so'lash tartibi bekor qilindi va barcha jarayon elektron shaklga o'tkazildi. Nomzodning bilimi, tajribasi va salohiyati ochiq tanlov orqali aniqlana boshladi. Ishga qabul qilish bo'yicha ochiq tanlov tizimi barcha idoralarda joriy qilindi. Shu maqsadda oliy o'quv yurtlari diplomlari va mehnat daftarchalarini mavjud elektron bazaga to'liq kiritib, Tanlov elektron platformasiga integratsiya qilindi.

Davlat xizmatiga ishga kelishi ehtimoli bo'lgan yoshlar uchun rahbarlik pog'onalarida o'sish imkoniyatining mavjudligi o'ta muhim. Ana shu maqsadda davlat idoralarida "mahalladan — respublikagacha" tamoyili asosida kadrlarni shakllantirishning zamonaviy tizimi joriy qilindi. 2022-yilda hokimlarning mahallalardagi yordamchilari va yoshlar yetakchisi tizimlarining joriy etilgani bu boradagi islohotlarning amaliy ifodasidir.

Shu bilan birga, davlat xizmati sifatini va boshqaruvda natijadorlikni oshirishning yana bir muhim yo'nalishi davlat xizmatchilarini



idoralarga emas, amaldorlar aholi dardini eshitish uchun ularning oldiga bormoqda.

### Boshqaruv amaliyotida muhim yangilik

Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik lavozimiga kelganidan keyin hududlar va alohida korxonalarga tez-tez tashrif buyura boshladi. Davlat rahbarining viloyatlarga yilda bir necha marta borishi, hududlarda kamida ikki kundan bo'lishi, viloyat hamda tuman rahbarlarining hali nazari tushmagan eng chekka qishloqlarga ham yetib borishi, xalq bilan ochiq muloqot qilishi, muammolarni joyida o'rganishi va eng muhimi, masalalarni o'sha paytning o'zida, joyida hal etish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilishi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

To'g'ri, shu kunga qadar ham davlat rahbarlarining hududlarga yoki ba'zi korxonalarga borishi va muammolarni joyida hal etish amaliyoti bor edi. Lekin bu tadbir davlat rahbarining yil davomidagi doimiy ishi emas, balki favqulodda holatlarda yuz berar edi. Ya'ni qaysidir hududni yuz bossa, yer qimirlasa, yirik korxona og'ir ahvolga tushib qolsa va shunga o'xshash tabiiy ofat yoki favqulodda hodisalar sodir bo'lganda mamlakat rahbarining u yerga zudlik bilan yetib borishi va salbiy holatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rishi tajribasi mavjud edi.

Lekin Prezidentimiz davlatni boshqarish amaliyotiga muhim yangilik olib kirdi. U davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tashkil etish va boshqarish jarayonida bugun jahonda yangi hodisa sifatida e'tirof etilayotgan usulni kashf etdi. Bu tashriflar ayrim davlatlarda ayni paytda yuz berayotgan yoki bir paytlar o'zimizda bo'lganidek biror hududga shunchaki etalab borib, nomiga 2-3 ta obyekt ko'rib, kunning ikkinchi yarmida poytaxtga qaytib kelishdan tubdan farq qiladi.

Mazkur safarlardan asosiy maqsad muayyan viloyat yoki yirik korxonadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha tegishli farmon-u qarorlarni Toshkentda, salqin kabinetlarda o'tirib tayyorlash emas, aksincha, muammolarni bevosita joyida aniqlash va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni hududlar vakillari bilan birgalikda ishlab chiqishdir.

Bu usulning boshqalaridan ustunligi va afzalliklari ko'p. Chunki vazirlik yoki tashkilot rahbari har qancha salohiyatli bo'lmasin, kabinetida o'tirib, hudud yoki korxonalarning muammolarini to'g'ri aniqlay olishi, ich-ichidan tushunishi, his



Prezidentimizning 2026-yil 1-apreldagi "Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida joriy yil iyundan boshlab aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish hamda fuqarolar muammolarini joyida hal etish maqsadida hudud rahbarlarining Xalq qabulxonalardagi qabul kunlari va vaqti belgilandi, qabul jadvali tasdiqlandi.

Unga ko'ra, endi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'rg'ri Kengesi va Vazirlar Kengashi raislari, shuningdek, viloyatlar hamda Toshkent shahri hokimlari belgilangan kunlarda fuqarolarni shaxsan qabul qiladi. Demak, yangi O'zbekistonda odamlar arzini aytgani

qilishi qiyin. Shu bois, tashrifdan bir necha kun oldin vazirlik va tashkilotlar rahbarlari viloyatlarga yo'l oladi. Muhim tarmoq va sohalar obyektlarini o'z ko'zi bilan ko'rib, muammolarini aniqlaydi, tegishli mutaxassis va vakillar bilan birgalikda vaziyatni o'nglash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Prezidentimiz qisqa muddatda yangi O'zbekistonni barpo etishga qodir kadrlar tayyorlash tizimini yaratdi. Natijada bugungi rahbar davlat xizmati sifati va islohotlarning natijadorligini oshirish uchun yetarli salohiyat va bilimlarga ega bo'ldi. Ularda aholi roziligiga erishish yo'lida fidokorona mehnat qilish ko'nikmalari shakllandi.









**Olimjon O‘SAROV,**  
mudofaa vazirining  
vatanparvarlik targ‘iboti,  
ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar  
hamda yoshlar masalalari  
bo‘yicha maslahatchisi



30-iyun — Yoshlar kuni



“Qurolli Kuchlarimizda jismoniy tayyorgarlik doim birinchi o‘rinda bo‘lib kelgan. Ko‘pkurash, qo‘l jangi va og‘ir atletika kabi an‘anaviy sport turlari allaqachon harbiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Ammo zamon shiddati armiya oldiga mutlaqo yangi va innovatsion talablarni qo‘ymoqda.

Boshlanishi 1-betda

Jangovar tayyorgarlikdan “proaktiv armiya” sari

Armiya bugun faqat hududiy daxlsizlikni ta‘minlovchi kuch emas, balki davlat barqarorligi, jamiyat xotirjamligi va kelajak taraqqiyotining asosiy tayanchiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev bebaho boylik bo‘lmish tinchlik va xotirjamlikni asrab-avaylash uchun har bir soha va tarmoq, ayniqsa, milliy armiya xavf-xatarlarga oldindan javob qaytarish bo‘yicha “proaktiv ish rejimi”ga o‘tishi shartligini qat‘iy ko‘rsatib o‘tdi.

Proaktiv armiyada inson kapitali katta o‘rin tutadi. Buning yaqqol misolini “Askar faqat jangchi emas, kelajak mutaxassisi” degan prinsipning hayotga izchil joriy qilinishida ko‘ramiz. Davlatimiz rahbarining eng muhim tashabbuslaridan biri muddatli harbiy xizmatga yangicha, keng ijtimoiy vazifa sifatida yondashuv belgilab berilgani bo‘ldi. Prezidentimiz muddatli xizmat nafaqat jismoniy, g‘oyaviy va harbiy tayyorgarlik, balki yoshlarni mehnat bozoriga, mustaqil kasbga tayyorlaydigan hayotiy bosqichga aylanishi kerakligini qayd etdi. Shu ma‘noda, muddatli harbiy xizmatning ijtimoiy funksiyasini tubdan o‘zgartirish — davr talabi.

“Bitta askar — bitta kasb” tamoyili

Yangi tizimga ko‘ra, har bir askar xizmatni o‘tash davomida vatanni himoya qilish bilan birga hayotda zarur bo‘lgan kamida bitta kasbni egallashi shart. Buning uchun harbiy qismlarda maxsus 3-6 oylik o‘quv kurslari tashkil etildi. Dastur yakunida beriladigan malaka sertifikatiga yigitlar uchun mehnat bozoriga kirish hujjati vazifasini o‘taydi. Bu, shubhasiz, “Bitta askar — bitta kasb” tamoyilining amaliy samarasidir.

Bugungi jang maydonlarida jismoniy kuchdan tashqari intellekt va algoritmilar to‘qnashmoqda. Shuni anglagan holda, Mudofaa vazirligi tizimida yoshlarni raqamli texnologiyalarga o‘qitish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har yili eng iqtidorli 5000 askar saralab olinib, “Bir million dasturchi” va “Besh million sun‘iy intellekt yetakchisi” dasturlari doirasida ta‘lim olishi yo‘lga qo‘yildi. Bu endi askarlar muddatli harbiy xizmatni tugatib, uyiga zamonaviy AT mutaxassisi, dasturchi yoki ma‘lumotlar tahlilchisi bo‘lib qaytadi deganidir. Bu esa armiyaning mamlakat iqtisodiy va texnologik taraqqiyotiga, raqamli ekotizim shakllanishiga katta hissa qo‘shishga kirishganini anglatadi.

Intellectual kapitalga sarmoya: imtiyozlar va kafolatlar

Keyingi yillarda davlatimiz yoshlarning puxta bilim olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Armiyada xizmat o‘tayotgan yoshlarga yaratilgan sharoitlar, berilayotgan imtiyozlar fikrimizning yaqqol tasdiqi. Bugun askar yigitlik burchini ado etish chog‘ida oliy o‘quv yurtiga kirish uchun test topshirish imkoniga ega. Testdan muvaffaqiyatli o‘tgach, xizmati tugashi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri talabalikka qabul qilinadi.

Xorijiy tillarni o‘rganish va xalqaro sertifikatlar (IELTS, TOEFL va hokazo) olish xarajatining davlat tomonidan qoplanishi, shuningdek, kontrakt asosida o‘qishga kirganlarga foizsiz ta‘lim krediti ajratilishi yosh harbiylarning kelajagiga eng katta investitsiya deya baholalanmoqda.

Yangi O‘zbekistonda davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak degan tamoyil ustuvor. U mudofaa tizimida ham qat‘iy o‘rnatildi. Har payshanba kuni vazirlik, idora va harbiy qismlarda “Yoshlar kuni” sifatida o‘tkazilayotgani armiya va jamiyat o‘rtasidagi ishonch ko‘prigini yanada mustahkamladi.

Mudofaa vazirining maxsus buyrug‘i bilan tashkil etilgan ushbu tizim doirasida “Harbiy qism yetiligi” har bir yosh harbiy xizmatchining, har bir askarning muammosini individual o‘rganmoqda. Dadil aytish joizki, muammolarni yashiradigan, kamchiliklarni xaspo‘shlaydigan davrlar o‘tdi. Bugungi ochiqlik siyosati har bir shikoyat va taklifning eshtilishini, har bir muammoning konstruktiv yechim topishini kafolatlaydi.

harakatlar natijasida “Muddatli harbiy xizmat — yoshlar uchun muvaffaqiyat yo‘li” degan shior haqiqiy voqelikka aylandi.

harakatlar natijasida “Muddatli harbiy xizmat — yoshlar uchun muvaffaqiyat yo‘li” degan shior haqiqiy voqelikka aylandi.

harakatlar natijasida “Muddatli harbiy xizmat — yoshlar uchun muvaffaqiyat yo‘li” degan shior haqiqiy voqelikka aylandi.

muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. Tahlillarga ko‘ra, ilgari yoshlar bilan ishlash tadbirlarining asosiy qismi faqat talaba va o‘quvchilarga qaratilgan bo‘lsa, endi yosh harbiy xizmatchilar va askarlar bilan manzilli, individual ishlash ko‘rsatkichi sezilarli darajada ortdi.

Harbiy qismlarda o‘tkazilayotgan tadbirlarning samaradorligi oylik reytinglar va chuqur tahlillar asosida baholab boriladi. Bunda asosiy mezon hal etilgan real muammolar va yoshlarning dunyoqarashidagi ijobiy o‘zgarishlar etib belgilangan. Ayniqsa, “Askar ota-onalarini sharaflaymiz” loyihasi armiyaning yuksak insoniy qiyofasini ochib berdi. Har bir askarning o‘rtida uni duolar bilan kutgan otanasini borligini his qilishi, xizmat jarayonida oilasi bilan doimiy muloqotda bo‘lishi uning ruhiy-psixologik ustuvorligini mustahkamlaydi. Oilasi xotirjam, yaqinlari e‘zozda bo‘lgan harbiy xizmatni o‘z burchini ikki karra mas‘uliyat va yuksak g‘urur bilan bajarishi shubhasiz.

“Askar oilasi harbiy qismda” va “Askarlik davrimni eslab...” loyihalari


Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroridagi vazifalar ijrosini ta‘minlash hamda “Xalq va armiya — bir tan-u bir jon” tamoyilini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Mudofaa vazirligi tizimida “Askar oilasi harbiy qismda” nomli innovatsion ijtimoiy dasturni joriy etish taklifi to‘liq qo‘llab-quvvatlandi.

Vazirning ko‘rsatmasiga muvofiq, mazkur dastur doirasida jangovar va ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarlikda yuksak natijalarga erishib, safdoshlariga o‘mak bo‘lgan eng ilg‘or muddatli harbiy xizmatchining oila a‘zolari (ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi) harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni nomidan rasman taklif etiladi. Ular bir sutka harbiy qismda bo‘lib, askarlarning kundalik xizmat jarayoni va boshqa tayyorgarlik tadbirlarida ishtirok etadi, harbiy qismlardagi haqiqiy zamonaviy sharoitlar bilan yaqindan tanishadi.

Bundan tashqari, Mudofaa vazirligi tizimida bayram tadbirlari doirasida yurtimizdagi tanilqli davlat va jamoat arboblari, san‘at va madaniyat namoyandalari hamda mashhur sportchilar ishtirokida “Askarlik davrimni eslab...” nomli ijtimoiy-vatanparvarlik loyihasi amalga oshirilishi belgilandi. Mashhur shaxslarning harbiy qismlarga oddiy mehmon sifatida emas, balki bir kunlik harbiy xizmatchi sifatida kelishini tashkil etish, ularning askar libosini kiyib, shaxsiy tarkib bilan bir safda turishi, birgalikda ovqatlanishi va suhbat qurishi armiyaning xalqqa naqadar yaqinligini ko‘rsatadi.

Ishirokchilar loyiha doirasida o‘zlari xizmat qilgan yillardagi sharoitlarni yangi O‘zbekiston armiyasining bugungi zamonaviy qiyofasi bilan qiyoslash imkoniga ega bo‘ladi hamda bu o‘zgarishlar va imkoniyatlar haqida o‘z xotiralari va xulosalari bilan o‘rtog‘lashadi. Jarayonda qo‘shinlarning zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikalar bilan ta‘minlangani, askarlarning professional tayyorgarligi va intellektual salohiyatini bevosita taqqoslatiladi.

Bu orqali mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlarimizning shakllanish yo‘li, moddiy-texnik bazaning tubdan yangilangani va



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Jamiyatning elita qatlami

Armiyadan qaytgan yoshlarning jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy moslashishi va ish bilan ta‘minlanishi Mudofaa vazirligi va boshqa tegishli vazirliklarning doimiy e‘tiborida. Qabul qilingan huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq, tadbirkorlik qilish istagidagi harbiy xizmatni o‘tagan yoshlar uchun kredit foizlarining har qismi davlat tomonidan qoplanishi, davlat tashkilotlariga ishgah kirishda beriladigan 10 foizli imtiyozli ballar armiya xizmatini o‘tagan yigitlarning jamiyatning elita qatlamiga aylanishi uchun xizmat qilmoqda.

oliy harbiylashtirilgan ta‘lim muassasalari kursantlari, harbiy akademik litseylar o‘quvchilari o‘rtasida 4 bosqichda o‘tkaziladi.

Kitobxonlik tanlovining respublika bosqichida vazirlik va idoralarning muddatli harbiy xizmatchilari, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilari, kursantlari hamda o‘quvchilari orasidan 1-o‘rinni egallagan 4 g‘olibning har biriga Oliy Bosh Qo‘mondonning bosh sovrini — elektromobil hamda diplom topshiriladi. 2-o‘rinni egallagan 4 sovrindorning har biri BHMning 100 barabari miqdorida bir yo‘la to‘lanadigan pul mukofoti hamda diplom, 3-o‘rinni egallagan 4 sovrindorning har biri esa BHMning 70 barabari miqdorida bir yo‘la to‘lanadigan pul mukofoti hamda diplom bilan taqdirlanadi.

Raqamlar va reytinglar: yuzakilikdan natijadorlikka

Tan olish kerakki, yaqin o‘tmishda yoshlar bilan ishlashda ba‘zan yuzaki yondashuvlar, rasmiyatchilik yoki hisobot uchun o‘tkaziladigan tadbirlar ham bo‘lgan. Biroq bugun Mudofaa vazirligi markaziy apparati va ta‘lim



E‘tibor

Ilgari farzandaning imkoniyati cheklanganidan ezilib, uni jamiyatga qo‘shgisi kelmagan ota-onalar bugungi g‘amxo‘rlikdan minnatdor. Mahallalardagi ijtimoiy xodimlarning egzu harakati, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati ortida inson qadri turganini butun xalq his qilmoqda.

INKLYUZIV TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH NAMUNASI

Reabilitatsiya markazlariga ega bo‘lgan “Imkon” va “Umid” ixtisoslashtirilgan tashkilotlarining ochilishi mamlakatimiz ijtimoiy tizimida yangi davrni boshlab berdi. Zero, avval maktabgacha korreksion ta‘lim, tibbiy, psixologik va ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashni bir joyda jamlagan yagona tizim mavjud emas edi. Bugun Nukus, Qibray, Qarshi va Zarafshonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan ushbu markazlar bolani ilk rivojlanish davridan boshlab voyaga yetguniga qadar uzluksiz kuzatib borish va qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilaypti. Shu ma‘noda, mamlakatimizning turli hududlarida shunday yangi markazlar qurilishiga start berilmoqda. Bu bilan ayni paytda Nukus, Qibray, Qarshi va Navoiy shaharlarida faoliyat yuritayotgan “Imkon” markazlari tarmog‘i yanada kengayadi. Qurilajak to‘rtta yangi markazning birinchisi joriy yilning kuzida Samarqand

shahrida ish boshlaydi. Qurilish ishlari qariyb 65 foiz yakunlangan markazni 2026-yil sentabrda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Kelgusida Farg‘ona viloyati, Toshkent viloyatining Nurafshon shahri va Namangan viloyati hududlarida ham yangi “Imkon” reabilitatsiya markazlarini ochish rejalashtirilgan. Zero, bu markazlar alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bolalar va ularning oilasi uchun zamonaviy reabilitatsiya hamda qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Ular faoliyati ikki asosiy yo‘nalishda tashkil etiladi. Birinchisi, 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkiloti bo‘lib, unda bolalar ta‘lim-tarbiya va rivojlantiruvchi xizmatlar bilan qamrab olinadi. Ikkinchisi, zamonaviy reabilitatsiya markazi. Bunda 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar ota-onalari hamrohligida ambulator

sharoitda jadal reabilitatsiya kurslarini o‘tashi mumkin.

Markazlar bir nechta muhim yo‘nalishni yagona makonda birlashtirgan. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya, korreksion mashg‘ulotlar, ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash va oilani kompleks ijtimoiy himoya qilish shular jumlasidan. Reabilitatsiya xonalari, maxsus xonalar, maktabgacha ta‘lim guruhlari, oshxona, ijodiy maydonchalar va bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish zonalarida barcha sharoit muhayyo. Mana shunday imkoniyatdan nafaqat poytaxt yoki ayrim shaharlarda, balki mamlakatning har bir hududida yordam olish uchun harakat qilinyapti.

— Reabilitatsiya uchun poytaxtga qatnar edik, — deydi qibraylik Shahnoza Rafiqova. — 4-5 yil avval o‘zimizning Qibrayda “Imkon” markazi ish boshladi. O‘shanda bolamni markazga

soat kelishimni aytib, qo‘ng‘iroq qilishdi. “Kech soat beshda olib ketgani kelasiz”, deyishganida, to‘g‘risi, yig‘lagim kelgan. Chunki bu biz — onabolaning birinchi ajralishimiz edi. Kechgacha uyda o‘tirgandek bo‘lmadim, juda xavotirlandim. Aytilgan vaqtda borib ko‘rsam, barcha bolalar, o‘g‘lim ham xursand bo‘lib chiqaypti. Farzandimga u yer juda yopiq qoldi. Tarbiyachilari, ustozlarini nohoyatda yaxshi ko‘radi, ularga mehri tushib qolgan. Yozish, chizish, umuman topshiriqlarni bajarish ko‘nikmasiga ega bo‘ldi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2019-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda o‘tkazilgan mashg‘ulotlar va muolajalarning umumiy soni qariyb 1,5 millionni tashkil etdi. O‘tgan yili esa esa 546 mingdan ortiq mashg‘ulot va muolaja o‘tkazilgan. Bu raqamlar nafaqat ish ko‘lamini, balki oilalarning qulay va sifatlil reabilitatsiya yordamiga real ehtiyojini ham ko‘rsatadi.

Navoiy viloyatining Zarafshon shahrida tashkil etilgan “Umid” reabilitatsiya markaziga ega davlat ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkiloti ham aholiga beminat xizmat qilaypti. Mutaxassislar bolalardagi nuqsonlarni aniqlab, tibbiy yordam ko‘rsatib kelmog‘da.

— Tashkilotimizda 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan 73 tarbiyalanuvchimiz bor, — deydi markazning tarbiyachi-uslubchisi Ra‘no

Hamrayeva. — Reabilitatsiya markazida esa 70 nafardan 80 nafargacha 2 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar qatnab, muolajalarni oladi. Ochiq va yopiq basseynlarimizda suv muolajalari muntazam bajariladi. Korreksion-rivojlantiruvchi va sog‘lomlashtirish ishlari natijasida tarbiyalanuvchilarimizda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Mutaxassislarning individual yondashuvlari, defektolog mashg‘ulotlari, psixologik yordam, davolovchi jismoniy tarbiya, massaj hamda reabilitatsiya muolajalari orqali tarbiyalanuvchilarimiz sog‘lomlashtirilib, bitiruvchilarimiz umumiy tipdagi maktablarga va umumiy turdagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga yo‘naltirildi.

Markazlar faoliyatining eng muhim natijalaridan biri bolalarning rivojlanish, mustaqil bo‘lish, inklyuziv sinflar va umumta‘lim maktablarida o‘qishga tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘layotganidir. Har yili ko‘plab bolalar yangi ko‘nikmalarni egallab, mustaqil harakatlanish, muloqot qilish va o‘z imkoniyatini namoyon etishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

Munojat MO‘MINOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



